


## 2021- yilning yanvar-iyun oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

2 585,4  
mlrd. soʻm


105,5 %

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida jami **2 585,4 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,5 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,  
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 735 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 302 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **109,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **64,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **122,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **14,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,2 %**) o'sishidir.




**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2020- yil	01.07.2021- yil	
<b>Surxondaryo viloyatii</b>	<b>2 433</b>	<b>2 735</b>	<b>112,4</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>714</b>	<b>802</b>	<b>112,3</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>51</b>	<b>68</b>	<b>133,3</b>
<b>Angor</b>	<b>139</b>	<b>162</b>	<b>116,5</b>
<b>Bandixon</b>	<b>34</b>	<b>55</b>	<b>161,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>146</b>	<b>139</b>	<b>95,2</b>
<b>Denov</b>	<b>140</b>	<b>173</b>	<b>123,6</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>195</b>	<b>230</b>	<b>117,9</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>145</b>	<b>151</b>	<b>104,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>152</b>	<b>154</b>	<b>101,3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>110</b>	<b>117</b>	<b>106,4</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>136</b>	<b>147</b>	<b>108,1</b>

Termiz	218	239	109,6
Uzun	51	60	117,6
Sherobod	83	99	119,3
Sho'rchi	119	139	116,8


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.07.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,3 %), Termiz tumani (8,8 %) va Jarqo'rg'on (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **309,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **87,4 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **2,0 %** punktga kamayib, **12,0 %** ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyun oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **55,9 %** i yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **77,3 %**), Qumqo‘rg‘on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,5 %** i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **130,9 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** i, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **163,3 %** ) ga to‘g‘ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,5 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **0,7 %** punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **107,9 %** ni tashkil etgan holda **1 641,0** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,5 %** ni tashkil etdi yoki **634,8** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,3 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **15,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 569,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,6 %** va **99,4 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 585,4</b>	<b>15,9</b>	<b>0,6</b>	<b>2 569,5</b>	<b>99,4</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>672,9</b>	<b>15,9</b>	<b>2,4</b>	<b>657,0</b>	<b>97,6</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Oltinsoy</b>	<b>30,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>30,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Angor</b>	<b>78,7</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>78,7</b>	<b>100,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>34,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>34,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Boysun</b>	<b>145,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>145,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Denov</b>	<b>189,8</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>189,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>155,6</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>155,6</b>	<b>100,0</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>59,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>59,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>109,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>109,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>156,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>156,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>362,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>362,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Termiz</b>	<b>270,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>270,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Uzun</b>	<b>102,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>102,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Sherobod</b>	<b>160,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>160,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>58,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>58,2</b>	<b>100,0</b>

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-iyun

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,9 % i yoki **2 040,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

78,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **271,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 87,9 % ni tashkil etdi

87,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 185,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.

72,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **584,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.

92,0 %




**2021- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼsish surʼati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 585,4</b>	<b>105,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>672,9</b>	<b>109,0</b>	<b>26,1</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>30,2</b>	<b>104,6</b>	<b>1,2</b>
<b>Angor</b>	<b>78,7</b>	<b>103,2</b>	<b>3,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>34,4</b>	<b>102,4</b>	<b>1,3</b>
<b>Boysun</b>	<b>145,2</b>	<b>107,3</b>	<b>5,6</b>
<b>Denov</b>	<b>189,8</b>	<b>111,9</b>	<b>7,3</b>
<b>Jarqoʼrgʼon</b>	<b>155,6</b>	<b>108,5</b>	<b>6,0</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>59,4</b>	<b>107,8</b>	<b>2,3</b>
<b>Qumqoʼrgʼon</b>	<b>109,2</b>	<b>107,9</b>	<b>4,2</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>156,2</b>	<b>109,2</b>	<b>6,0</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>362,4</b>	<b>93,2</b>	<b>14,0</b>
<b>Termiz</b>	<b>270,5</b>	<b>104,6</b>	<b>10,5</b>
<b>Uzun</b>	<b>102,5</b>	<b>103,0</b>	<b>4,0</b>
<b>Sherobod</b>	<b>160,2</b>	<b>108,2</b>	<b>6,2</b>
<b>Shoʼrchi</b>	<b>58,2</b>	<b>110,3</b>	<b>2,3</b>

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

### *ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil  
yanvar-iyun

## **Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari**




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,1 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,0 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,9 %** punktga kamayib, **65,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamayib, **33,9 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **47,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **52,6 %** (**4,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.







## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,6 %** punktga ko'paydi va **19,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **80,7 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,6 %** punktga kamaydi.

*ulushi, % da*



2021- yilning yanvar-iyun oylarida  
tumanlar kesimidagi qurilish ishlari





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59